




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1603,6 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan (105,3 foizni), shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 118,7 mlrd.so'mni (104,7 foiz) yalpi chorvachilik mahsulotlari, 1404,1 mlrd.so'mni (106,2 foiz) qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 5,3 mlrd.so'mni (46,3 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 18,7 mlrd.so'mni (92,4 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,3 mlrd.so'mni (100,0 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 56,5 mlrd.so'mni (101,7 foizni) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona tumani (116,3 foiz), Quvasoy shahar (112,5 foiz), Furqat (106,9 foiz), Beshariq (106,4 foiz) tumanlarida, Farg'ona shaharida (106,2 foiz) kuzatildi. Bag'dod tumani (100,0 foiz), Yozyovon (100,1 foiz) va Marg'ilon (103,0 foiz) shaxrida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Farg'ona tumanining ulushi 8,5 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Oltiariq tumani 7,6 foizni, Beshariq va Quva tumanlari mos ravishda 6,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush esa So'x (2,1 foiz), Marg'ilon (2,6 foiz) shaxarlarida, Qo'qon va Yozyovon tumanlari 3,3 va 3,5 foiz bilan qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 106,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 104,7 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 106,2 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 89,5 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,5 foizi – fermer xo'jaliklariga, 4,0 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 118,7 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,8 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – mart oylarida 7,1 ming tonna (108,0 foiz) sabzavot, 2,0 ming tonna (283,5 foiz) meva va rezavorlar yig'ib olindi. Bundan tashqari 2076 ming dona terak ko'chatlari (116,7 foiz), terak qatorlari 419 ming dona (111,4 foiz) ni tashkil etdi.

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida umumiy hajmining 89,2 foizi sabzavot, 98,6 foiz mevavarezavorlar ular tomonidan ishlab chiqarildi.

Chorvachilik




2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1404,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 106,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,2 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 33,0 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-martga nisbatan 6,4 foizga), 187,9 ming tonna sut (4,8 foizga), 89,1 mln.dona tuxum (28,2 foizga ko'p), 90 tonna jun (4,3 foizga kam) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi







Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 90,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 97,0 foizi, tuxumning 65,7 foizi, junning 62,2 foizi, ovlangan baliqni 9,9 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1005,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 373,6 ming boshga, qo'y va echkilar – 857,6 ming boshga, parrandalar – 7729,3 ming boshga etdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 4,6 ming boshga (0,5 foizga), shu jumladan sigirlar – 16,5 ming boshga, (4,6 foizga), qo'y va echkilar – 22,5 ming boshga (2,7 foizga) ko'payib, parrandalar – 1717,5 ming boshga (28,6 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



2019 yining 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 94,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 9,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 64,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek viloyatimizda aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilishi hamda berilayotgan imtiyozli kreditlar natijasida viloyatimizda 2019 yil 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar 7729,3 ming boshni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 28,6 foizga ko'p, shundan fermer xo'jaliklarida 713,7 ming bosh (2,2 foiz)ga, dehqon

(shaxsiy yordamchi xo'jaliklari) da 4961,6 ming bosh (27,6 foiz)ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2054,0 ming bosh (44,1 foiz) ga ko'paygan.

Tuxum yetishtirish barcha toifadagi xo'jaliklarda 89,0 mln.donani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 28,2 foizga, yoki 24598 ming donaga oshgan, shundan fermer xo'jaliklarida 12,7 mln.dona (79,9 foiz)ga, dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklari)da 58,6 mln.dona (10,8 foiz)ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 17,8 mln.dona (86,0 foiz)ga ko'paygan.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 73 241-72-42

mas'ul shaxs: Yakhyojon Esonmirzaev